

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

**TYUTORNING ISH FAOLIYATIDAGI VAZIFALARI, FUNKSIYALARI VA  
TYUTORLIK ROLLARI**

*Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi*

*FarDU Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti*  
[madinabonumuhhammadjonova07@gmail.com](mailto:madinabonumuhhammadjonova07@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bu maqola orqali tyutorlik faoliyati, uning shakllanish bosiqichi, tyutorlik faoliyatida mazkur kasb egalari va kelajakda tyutorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan talabalar bilishi kerak bo'lgan vazifalar, asosiy funksiyalar va tyutorlik rollari borasida batafsil tushunchaga ega bo'linadi. Tyutor ta'liz tizimi muvaffaqiyati uchun muhim shaxs va bu yo'lida mavjud ish jarayonini to'g'ri tashkil etish ahamiyatlidir.

**Key words:** tyutor vazifalari, funksiyalar, xususiyatlar, tyutor rollari, ta'liz tizimi, bosqichlar, universitet.

**Аннотация:** Благодаря данной статье вы получите детальное представление о репетиторской деятельности, ключе к ее формированию, задачах, основных функциях и роли репетиторства, которые должны знать носители этой профессии и студенты, желающие заниматься репетиторством в будущем. Репетитор – важный человек для успеха системы образования, и важно правильно его организовать.

**Ключевые слова:** обязанности тьютора, функции, особенности, роли тьютора, система образования, этапы, вуз.

**Abstract:** Through this article, you will get a detailed understanding of the tutoring activity, the key to its formation, the tasks, main functions and roles of tutoring that the holders of this profession and students who want to engage in tutoring in the future should know. The tutor is an important person for the success of the educational system, and it is important to organize it correctly.

**Key words:** tutor's duties, functions, features, tutor's roles, education system, stages, university.

Bugungi kunda barcha davlatlar qatori bizning yurtimizda ham ta'limga va uni mazmunli tashkil etish, sifatini yuqori bosqichga ko'tarish uchun qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Tyutorlik faoliyati mamlakatimizda joriy etilgan yangi kasb bo'lsada, ushbu faoliyat bir necha asrlar avval chet el mamlakatlarida paydo bo'lgan. O'sha davrlarda ta'liz standartlari va talaba uchun katta akademik erkin holat mavjud bo'lmagani sababli, talabaga berilayotgan katta hajmdagi ta'liz xizmatlarini boshqarishga va ularni talabaning shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlari bilan taqqoslashga yordam beradigan murabbiyya ehtiyoj seziladi.

Tyutor talaba bilan muloqot o'rnatib, qaysi amaliy mashg'ulotlar va ma'ruzalarda qatnashish kerakligini aniqlashga, individual o'quv rejasini tuzishga yordam beradi, professor-o'qituvchilar talablarining topshiriqlarni bajarilishini va talabalarning imtihonlarga tayyorligini nazorat qiladi. Mavjud adabiyotlarda tyutorlik faoliyati XII asrdagi Yevropa universitetlari, jumladan Oksford,

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

Kembrij universitetlari tarixi bilan chambarchas bog'liqligi va Buyuk Britaniyada shakllanganligi ta'kidlangan [4; 246-b].

Tyutorlik faoliyati taxminan XIV asrda ingliz universitetlari Oksford va biroz keyinroq Kembrijda shakllangan va bu bo'yicha mavjud tajribalarning tahlillariga ko'ra, shu davrdan boshlab tyutorlikning universitet murabbiyligi sifatida tarixiy rivojlanganligini ko'rish mumkin. Bu davrda universitetlarga dastlab o'qituvchilar va talabalarning uyushmalari sifatida qaralgan va talabalar bir xildagi muayyan kurslarda ishtirok etishi talab etilmagan, qaysi professorni tinglashni yoki qaysi fanlarni o'rganishni talabaning o'zi hal qilishi lozim bo'lgan. Har bir professor o'zining kitobini o'qigan va sharhlagan. Shuning uchun talabalar nafaqat o'zining, balki boshqa ta'lim muassasalar professorlari ma'ruzasini tinglashlari mumkin bo'lgan. Universitet esa, o'z talabalarini faqat bitiruv imtihonlariga qo'ygan. Bunda talabalarga kurs yakunida tegishli darajani olishi uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallahsha, o'z yo'lini tanlash jarayonida tyutorlar yordam ko'rsatishgan [5; 46-b]. Talabaning mustaqil o'qishi bilan uning ta'lim olish erkinligi o'zaro bog'liqidir. Bunda talabaning mustaqil bilim olish jarayonini akademik g'oyalar bilan bog'lash tyutorning asosiy vazifasi hisoblanadi. Mustaqil o'qish jarayoni universitetda bilim olishning asosiy qismi hisoblangan va tyutor ushbu mustaqil o'qish jarayoniga ko'maklashish funksiyalarini bajargan.

Tyutor – pedagog ta'lim oluvchilarning mustaqil ravishda maqsadini belgilashiga, o'z kamchiliklarini tushunishga, ajodolar tajribasini amalda qo'llashga o'rgatadi. Tyutorlikning o'ziga xos afzalliklari, o'ziga xos xususiyatlari bor. Ushbu faoliyat egalari ish jarayonini sifatli yuritish uchun bir qancha vazifalarni o'taydilar. Shunday qilib, tyutorning asosiy vazifalari quyidagilardan tashkil topgan:

- Har bir ta'lim oluvchining rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim muhiti sifatida jamoani shakllantirish;
- Jamoaning barcha turdag'i guruh, jamoaviy va individual faoliyatini tashkil etish;
- Guruhda qulay psixologik iqlimi ni ta'minlash.


Bundan tashqari tahli qilinishi muhim bo'lgan jihatlardan yana biri bu tyutorning funksiyalaridir. Uning asosiy funksiyalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- Talabalarning individual xususiyatlarini o'rganish;
- Sinf jamoasi rivojlanishini o'rganish va tahlil qilish;
- Har bir bolaning oilaviy tarbiyasini tahlil qilish va baholash;
- Har bir bolaning tarbiya darajasini tahlil qilish va baholash;
- Talabalarning turli faoliyatini tashkil etish va rag'batlantirish;
- Talabalarning oilalari va aloqalarini o'rnatish;
- Talabalar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni tartibga solish;

Zamonaviy ta'limda tyutor bajaradigan tyutorlik rollarini quyidagi klasterda ko'rishimiz mumkin.


# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali




- Maqsadga erishish uchun yuqori darajada qiziqtiradi, ruhlantiradi

**Motivator**



- Ma'lum bir ishni boshlash yoki bajarishda to'g'ri maslahat beradi

**Edvayzer**



- Talabalarga qiyin bo'lgan vaziyatlarda to'g'ri yo'l ko'rsatadi

**Mentor**



- Talabalar bilan o'zar samimiy va manfaatli muloqotni amalga oshiradi

**Kommunikator**



- Ma'lum bir ish va topshiriqni bajarishda rag'batlantiradi

**Fasilitator**



- Biror mavzu yoki masala yuzasidan o'zining xolis fikrini bayon qiladi

**Spiker**



Xulosa qiladigan bo'lsak, o'z vazifalarini bilgan, talabalar bilan ishslashda muhim funksiyalarni hisobga olib ish yuritadigan hamda har bir vaziyatga moslasha oladigan tyutor ish jarayonida hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Kelajakda ushbu kasbni egallamoqchi bo'lgan shaxslar o'z faoliyatlarini tashkillashda yaxshi natijalarga erishishlari uchun yuqorida berilgan nazariya va tushunchalar ma'lum bir darajada ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Guedes, M. G.; Lourenço, J. M.; Filipe, A. I.; Al- meida, L. & Moreira, M. A. (2007). Bolonha. En- sino e aprendizagem por projeto. Lisboa: Centro Atlântico.

2. Pereira, A. S. (2005). Para obter sucesso na vida académica: apoio dos estudantes pares. theoria poesis praxi. Aveiro: Universidade de Aveiro. Powell, P. C. & Weenk, W. (2003).
3. Project- Led Engineering Education. Utrecht: Lemma. Rose, G. L. & Rukstalis, M. R. (2008).
4. Urinova, N. M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students' research competence. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2344-2348.
5. Urinova Nilufar Mukhammadovna. (2023). IMPLEMENTATION OF TUTOR'S SUPPORT MODEL IN HIGHER EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(03), 58–64. <https://doi.org/10.37547/pedagogicscrjp-04-03-12>
6. O'rınova N.M; Muxammadjonova M.I - “Talimda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyatli jihatlari” - Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 11-son\_8-to'plam\_Dekabr-2023
7. <http://www.ua.es/ice/tutorial>
8. [http://www.ipcbpt/index.php?option=com\\_content](http://www.ipcbpt/index.php?option=com_content)